



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATIGA OID QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH DAVR TALABI HAMDA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Salohiddinova Farangiz Abror qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tezkor-qidiruv faoliyati tushunchasi? Unga oid qonunchilik, takomillashtirish sabablari va uning o'ziga hos xususiyatlari yoritilgan. Ya'ni "Qonun ustuvor yurtda adolat hukumron bo'lur"

Kalit so'zlar: TQF, qonun, konspiratsiya, xalqaro hamkorlik, bo'shliqlarni to'ldirish.

Annotation: This article explains what search activity is? legislation relating to it, reasons for improvement and its specific features are highlighted.

Keywords: TQF, the law, conspiracy, international cooperation, filling in the gaps.

Tezkor-qidiruv faoliyati-Huquqni muhofaza qilish faoliyati shakllaridan biri hisoblanadi. Qonun hujjatlarida vakolat berilgan organlar tomonidan inson hamda fuqorolarning hayoti, sog'lig'ini, huquq va erkinliklarini, jamiyat va fuqorolar havfsizligini, mamlakatni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish maqsadida tezkor qidiruv tadbirlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladigan oshkora va yashirin ravishda amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan jinoyatchilini oldini olish, sodir etilayotgan jinoyatlarni tezkorlik bilan ochish, mamlakatimizda tinchlikni mustahkamlash, fuqorolarning huquq va erkinliklarini amalda ta'minlash yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Negaki, tezkor-qidiruv faoliyatida qonunchilikka rioya etish, ma'lumotlar olish jarayonlari ancha yopiq tarzda tashkil etilgani sababli uning qonuniyligi, amalga oshirish jarayonida qonunchilikka rioya etilishi, ma'lumotlarning haqiqiyliги yuzasidan juda ko'p savollar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan ayrim holatlarda gumon qilinuvchidan, ayblanuvchi va sudlanuvchidan arizalar va tushuntirishlar yoki ko'rsatuvlar o'zi istagan vaqtda, hech qanday ruxsatsiz olib kelingan bo'lsa, endilikda jinoyat ishi o'z yurituvida bo'lgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirilishi, bundan belgilangan tartibda himoyachidan voz kechilgan hollar mustasno etib belgilandi. Ushbu faoliyatni takomillashtirish davr talabi hisoblanadi chunki ushbu faoliyat jinoyatlarni oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

etish shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash hamda toppish, surishtiruv, tergov organlari va suddan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan bo'yin tovlayotgan shaxslarni, bedarak yo'qolgan shaxslar va qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarni qidirishni amalga oshirish, shuningdek tanib olinmagan murdalarning shaxsini aniqlashdan hamda shaxs, jamiyat va davlat havfsizligiga tahdid solayotgan shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizliklar) haqida axborot to'plash kabi muhim vazifalarni amalga oshiradi. Xususan tezkor-qidiruv faoliyati materiallari jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'lishi, jinoyat ishi o'z yurituvida bo'lgan surishtiruv, tergov organlariga, prokurorga tergov harakatlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish uchun taqdim etilishi, shuningdek bu materiallarda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat - protsessula kodeksi normalariga muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha isbot qilishda foydalaniladi. Bu natijalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat - protsessula kodeksiga muvofiq tekshirilgan vabaholanganidan so'ng dalillar sifatida e'tirof etilishi mumkin. Bu esa albatta jinoyatni tez va to'la ochilishida o'zining ijobiy samarasini beradi.

Qonunchilikda tezkor-qidiruv faoliyati uning natijalaridan foydalanishga oid normalarni mukammallashtirish, tezkor-qidiruv faoliyati davomida shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash bo'yicha mexanizmlar to'liq ishga solish bo'yicha qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ham bu faoliyatni yanada takomillashuviga va samarali faoliyatiga sabab bo'ladi. Shu jumladan, 2012-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-344-son- Qonun-Tezkor-qidiruv faoliyati asoslarini tartibga soluvchi huquqiy hujjat hisoblanadi. Xususan, Qonunda tezkor-qidiruv faoliyati tushunchasining mazmuni yoritilgan, uning vazifalari va prinsiplari, TQTni o'tkazish asoslari, TQF natijalarini rasmiylashtirish va ulardan foydalanish tartibi, Tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar hamda ularning huquq va majburiyatlari yoritilgan. Hamda qonunda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashadigan fuqarolarni huquqiy ijtimoiy himoya qilish, faoliyatni moliyalashtirish, uning ustidan idoraviy nazorat, tezkor -qidiruv sohasidagi xalqaro hamkorlik masalalari yoritilgan. Shundan kelib chiqib aynan biz qonunning 8-moddasi. Konspiratsiya prinsipi ya'ni tezkor-qidiruv faoliyati konspiratsiya prinsipiga rioya etilgan holda tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazishning, tezkor-qidiruv xususiyatiga ega axborotni olish, rasmiylashtirish, saqlash va undan foydalanishning, shuningdek tezkor-xizmat xususiyatiga ega hujjatlar bilan ishlash qoidalarining alohida tartibi belgilangan holda amalga oshirilishini yanada kengaytirilgan holda tahlil qilinishi ushbu prinsipga yanada aniqlik kiritilishi bu qonunning amalda yanada o'zining ijobiy



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

samarasini berishga xizmat qiladi. Negaki, aynan tezkor-qidiruv faoliyatining eng asosiy prinsiplaridan biri ununing faloiyatiga bevosita daxldor prinsip bu konspiratsiya prinsipi hisoblanadi. Shuningdek qonuning 12-moddasida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning huquqlari yoritilgan unga ko'ra:

* qonunning 14-moddasida nazarda tutilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini oshkora va nooshkora o'tkazish;

*maxfiylik asosida ko'maklashish istaginin bildirgan shaxslar bilan pulli yoki bepul hamkorlik o'rnatish;

*yuridik va jismoniy shaxslarning roziligi bilan ularga tegishli xizmat joylari va turar joylardan, transport vositalari va boshqa mol-mulkdan foydalanish;

*o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni hal etish uchun maxsus bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar yordamidan foydalanish;

*video-va audioyozuv, kino va fotosuratga olish vositalarini, shuningdek inson hayoti va sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki, atrof muhit uchun havfsiz boshqa texnik vositalarni qo'llash;

*tezkor-qidiruv uchun mo'ljallangan axborot tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish huquqiga ega hisoblanadi.

Xususan, qonunda aks etgan huquqlaridan kelib chiqib, 12-moddaning 6-bandida nazarda tutilgan tezkor-qidiruv uchun mo'ljallangan axborot tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish huquqiga ega degan jumlaning zamonaviy axborot tizimlarini yaratish ko'rinishida o'zgartirish ham kelgusida qonunning amalda turli baxsli xolatlariga sabab bo'lmasligiga olib keladi. Chunki, hozirgi fan-texnika rivojlangan XXI asrda zamonaviy axborot tizimlari jadal rivojlangan va amalda ham o'z samarasini berib bormoqda. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik, huquq-tartibotni mustahkamlash davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Huquqni muhofaza qiliuvchi organlar uchun nafaqat sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish, balki jinoiy hodisa va jarayonlar rivojlanishi ustidan nazorat o'rnatish muhim vazifa hisoblanadi. Aynan, tezkor-qidiruv faoliyatiga oid qonunchilikni rivojlantirish ham uning kelgusidagi faoliyatini yanda samarali hamda har tomonlama mukammal bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" gi qonun
2. 2022-2024-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (2012-yil 25 dekabr O'RQ 344-son)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son farmoni 1-ILOVA